



RAQAMLASHTIRISH VA INSON HUQUQLARI

Xamidova Odina Shavkat qizi

Toshkent davlat yuridik univertiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 2-kurs talabasi

E-mail: oydinahamidova2005@gmail.com

Telefon: +998941934008

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson huquqlarining tarixiy shakllanish jarayoni hamda zamonaviy raqamli texnologiyalarning ularga ko'rsatgan ta'siri atroflicha tahlil qilinadi. Raqamlashtirishning axborot erkinligi, ta'lim sifati va tibbiyot sohalarida yuzaga keltirgan yangi imkoniyatlari alohida qayd etiladi. Shu bilan birga, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish zarurati, sun'iy intellektning inson huquqlariga ta'siri hamda intellektual mulk huquqlariga oid dolzarb muammolar ham keng yoritilib, ularning huquqiy va ijtimoiy oqibatlari tahlil etiladi.

Аннотация: В данной статье всесторонне анализируется историческое формирование прав человека и влияние на них современных цифровых технологий. Особое внимание уделяется тем новым возможностям, которые цифровизация открывает в сферах свободы информации, образования и медицины. Вместе с тем рассматриваются актуальные проблемы, связанные с необходимостью защиты персональных данных, воздействием искусственного интеллекта на права человека, а также с вопросами, касающимися охраны интеллектуальной собственности. При этом подчеркиваются как правовые, так и социальные последствия указанных процессов.

Annotation: This article provides a comprehensive analysis of the historical development of human rights and the impact of modern digital technologies on them.



Particular attention is given to the new opportunities created by digitalization in the fields of freedom of information, education, and healthcare. At the same time, the article examines pressing issues such as the protection of personal data, the influence of artificial intelligence on human rights, and challenges related to intellectual property. Both the legal and social implications of these processes are highlighted.

Kalit soʻzlar: inson huquqlari, raqamli texnologiyalar, raqamlashtirish, axborot erkinligi, taʼlim, tibbiyot, shaxsiy maʼlumotlarni himoya qilish, sunʼiy intellekt, intellektual mulk, huquqiy oqibatlar, ijtimoiy taʼsir

Ключевые слова: права человека, цифровые технологии, цифровизация, свобода информации, образование, медицина, защита персональных данных, искусственный интеллект, интеллектуальная собственность, правовые последствия, социальное воздействие

Keywords: human rights, digital technologies, digitalization, freedom of information, education, healthcare, personal data protection, artificial intelligence, intellectual property, legal implications, social impact

Inson huquqlari rivojlanishi uzoq oʻtmishga borib taqaladi. **Miloddan avvalgi 539-yilda** Ahamoniylarning birinchi shohi Kir tomonidan Bobil davlatining zabt etilgani sharafiga barcha qullarni ozod qiladi. U barcha irqning teng va har kim oʻzi xohlagan dinga eʼtiqod qilish huquqiga ega ekanligi eʼlon qilgan. Bu haqida qadimgi Akkad tilida yozilgan sopol xumdagi bitiklar asos boʻladi. Keyinchalik inson huquqlari tan olish va taʼminlash masalasi: *“Magna Karta” (1265), Fransiyaning Inson va fuqarolarning huquqlari deklaratsiyasi (1789), 1864-yilgi Jeneva Konvensiyasi, “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” (1948)* da asta-sekin rivojlanib boradi. Biroq XXI asrga kelib ijtimoiy munosabatlar shiddat bilan



o'zgarimoqda. Bu esa inson huquqlarini ta'minlanishi, kafolatlanishi va himoya qilinishi bo'yicha foydali va zararli holatlarni keltirib chiqarmoqda. Natijada, kelajakda yuzaga keladigan xavflarni oldini olish uchun zarur chora-tadbirlar ko'rishni talab etmoqda.

XXI asr texnika asr deb ataldi. Ushbu davrga olimlar ta'riflashda *“digital age”*, *“computer age”*, *“raqamli asr”* *“raqamli dunyo”* kabi atamalardan keng foydalanadilar. Chunki butun dunyo aholisining kundalik tartibining asosiy qismiga aylanib ulgurgan internet va kompyuterlar ixtiro qilingan davrdir. Jumladan, **1946-yil 14-fevral** kuni yer yuzidagi birinchi umumiy maqsadli elektron kompyuter “Elektron raqamli integrator va kompyuter” (ENIAC) yaratildi. Bu esa yangi asr uchun ulkan inqilob deb hisoblandi. Yoki birinchi shaxsiy kompyuterlar (PC) MITS nomi kichik kompaniya tomonidan 1974-yil ixtiro qilinishi, so'ngra 1976-yilda Stiv Voznyak va Stiv Jobs shaxsiy kompyuterlar bozoriga kirish maqsadida o'z kompaniyalariga asos solib, biz bilgan Apple I kompyuterlarini yaratishi buning yorqin dalilidir. Shu tariqa 1970-yillarning oxiri shaxsiy kompyuterlar yaratilishi jamiyat hayotida katta burilish yasadi. Ushbu davr zamoviy kompyuter sanoati va raqamli dunyoning shakllanishi muhim rol o'ynadi. Bu holatni hatto Kompyuter fanlari professori Andre DeHonning so'zlari ham isbotlaydi: “ENIACning merosi bugungi kompyuterlashtirilgan dunyodir va biz yashayotgan olam. Aynan ushbu avtomatlashtirish hamda hisoblash texnologiyalari tufayli hayotimiz yanada qulay va rivojlangan bo'ldi”.

Raqamli dunyo deyarli barcha sohalarga o'z ta'sirini o'tkazib ulgurdi, inson huquqlari sohasi ham bundan mustaso emas. Endilikda birgina kitobni o'qish uchun kutubxonalarda oylab navbat kutish shart emas. Internet orqali o'zimiz uchun kerakli bo'lgan istalgan axborotni topib, o'rganish imkoniga ega bo'ldik. Lekin ushbu qulayliklar o'z narvbatida ko'plab xavf-xatarlarni ham keltirib chiqarmoqda. Boshqacha qilib aytganda, bir tomondan, raqamlashtirish insonga o'z huquqlarini



amalga oshirish uchun keng imkoniyatlarga yaratib bergan bo'lsa, ikkinchi tarafdin inson huquqlari juda katta xavf ostida qolmoqda.

Raqamlashtirishning inson huquqlarini ijobiy ta'sirlari quyidagilardan iborat: Axborot erkinligi nazariyasi shaxs o'z fikrini erkin ifodalashi va o'zi uchun muhim bo'lgan axborotni izlashi, undan foydalanishi tarqatishi mumkinligini bildiradi. Internet va turli raqamli platformalar odamlarga o'z fikrlarini erkin bildirish, bilim va ma'lumotlardan foydalanish kabi yangi imkoniyatlar yaratadi. Bunda xalqaro hujjat va standartlarning ham o'rni katta. Jumladan, BMTning **“Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”** va **“Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida”gi Xalqaro Paktning 19-moddalarida**, har bir inson hech qanday to'siqsiz o'z fikriga ega bo'lishi va uni erkin bildira olish huquqi mavjudligi va inson o'z ixtiyoriga ko'ra istalgan usul bilan turli axborot va g'oyalarni qidirish, olish va tarqatish erkinligi mavjudligi belgilangan. Hatto, **2011-yil 21-iyulida BMT Inson huquqlari qo'mitasi** ushbu 19-moddaga huquqiy sharh berishi bu huquqlarning qanchalik ahamiyat ega ekanligini ko'rsatgan. Izohda: *“So'z va fikrlash erkinligi shaxsning har tomonlama kamol topishining ajralmas shartidir. Ular har qanday jamiyat uchun zarurdir. Ular har bir erkin va demokratik jamiyatning poydevorini tashkil etadi”*, deya keltirilgan. Shunga asoslangan holda, 2022-yil 28-29-sentabr kunlari O'zbekistonning Toshkent shahrida Xalqaro axborotdan erkin foylanish kuni munosabati bilan axborotga erkin kirish va undan erkin foydalanish huquqi inson huquqlari va demokratiyaning ajralmas qismi ekanligini ta'kidlangan. Bundan tashqari, deklaratsiyada ishtirokchi davlatlar fuqarolar uchun erkin, qulay va ko'p tomonlama ommaviy axborot muhitini yaratishlari, qarorlar qabul qilish jarayonlari yuzasidan xabardor qilishni qo'llab-quvvatlash, shaffoflikni va javobgarlikni oshirish, shuningdek, noto'g'ri axborot va xabarlarga qarshi kurashish, bundan holatlarning demokratik jarayonlarga va barqaror rivojlanish sohalariga, xususan, ta'lim, sog'liqni saqlash



yoki atrof-muhitga tahdidlarni hisobga olish kabi majburiyatlarni olishlari belgilangan.

So'nggi yillarda davlatimizda ham ochiqlik siyosati jadal ravishda rivojlanib bormoqda. Axborot erkinligi ta'minlashga qaratilgan bir qancha qonunchilik hujjatlari qabul qilindi. Bular jumlasiga "*Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida*" Qonun, "*Axborot erkinligi va kafolatlari prinsiplari to'g'risida*"gi Qonun, "*Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida*"gi Qonun kabilarni keltirish mumkin. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining **Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga** davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik (**215⁷-moddasi**) belgilab qo'yildi. Bundan tashqari, fuqarolar uchun qulay bo'lgan davlat organlarining onlayn platformalarini ham ishlab chiqildi. Misol uchun aholiga davlat xizmatlarini ko'rsatish maqsadida Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (**my.gov.uz**) ishga tushirilib, bugungi kunda aholiga 400 dan ortiq davlat xizmatlari onlayn tarzda ko'rsatilmoqda. Yoki normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini jamoatchilik muhokamasiga taqdim etuvchi **Regulation.gov.uz** platformaning ishga tushirilishi fuqarolarning ham qonunlarni qabul qilishda ishtirokini ta'minlashga xizmat qilmoqda va bu jamiyatda demokratiyani rivojlanishiga o'z hissani qo'shmoqda.

Yana bir afzalliklaridan biri, insonlarning ijtimoiy-madaniy huquqlari bo'lgan, ta'lim olish va tibbiy malakali xizmatlardan foydalanish huquqini amalga oshirishda bir qancha imkoniyatlarni yaratib berayotganligidir. "**Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi**" (**26-moddasi**) va "**Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi**" Xalqaro Paktning (**13-moddasi**)da har bir inson ta'lim olish huquqiga ega ekanliklari keltririlgan. Ta'lim olish sharoitini yaratib berish har bir davlatning majburiyati ekanligi



keltririlgan. Ushbu huquqning ta'minlash masalasi, ayniqsa, Covid-19 pandemiyasi davrida mushkul bo'ldi. Ko'plab mamlakatlar hali masofaviy onlayn ta'limga hali tayyora emasliklari yaqqol ko'zga tashlangan bo'lsa-da, turli ta'lim platformalar yoradmida darslar olib borishga erishildi. Bundan tashqari, UNESCO va Dubai Cares ta'limning raqamli transformatsiyasi bo'yicha yangi yo'l xaritasi bo'lgan **“Ta'lim uchun ulanish to'g'risidagi”** qayta tuzilgan Global deklaratsiya qabul qilindi. Shuningdek, **2020-yilda** qabul qilingan yangi tahrirda qabul qilingan **“Ta'lim to'g'risidagi”** Qonunda ham shaxslar zarur bilim va ko'nikmalarni axborot kommunikatsiyalari yordamida hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofaviy ta'lim olish huquqiga ega ekanliklari belgilab qo'yildi.

“Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi” Xalqaro paktning 12-moddasiga ko'ra *“Kasal bo'lgan hollarda hammaga tibbiy yordam ko'rsatish va tibbiy parvarishni ta'minlaydigan sharoit yaratish”* uchun tegishli chora-tadbirlar ko'rish har bir ishtirokchi davlatning majburiyati ekanligi belgilangan. Shunga asoslangan holda, **Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti tomonidan 2020-yil may oyida 73-sonli sessiyada “Raqamli sog'liqni salash bo'yicha global strategiya 2020-2025”** hujjati qabul qilindi. Hujjatning asosiy g'oyasi har bir inson uchun, har qanday joyda salomatlikka bo'lgan huquqni ta'minlash maqsadida raqamli sog'liqni saqlash texnologiyalarni xavfsiz, teng, arzon va ommabop tarzda rivojlantirish va kengaytirish zarurligi keltirib o'tilgan. Jumladan unda raqamli shifoxona deb, shifoxona xizmatlari nafaqat shifoxona ichida, balki tashqarisida ham ko'rsatadi. Bu an'anaviy muassasaga asoslangan tibbiy xizmat ko'rsatish modelidan voz kechib, bemor markazda shakllangan, sog'liqni saqlashning uzluksiz tizimiga integratsiyalashgan aqlli virtual xizmatlar tarmog'iga o'tish nazarda tutilgan.



Garchi raqamlashtirish inson huquqlarini amalga oshirishda o'zining ulkan hissasini qo'shsa-da, uning yordamida bir qancha huquqbuzarliklarni sodir etish ham osonlashmoqda.

Ma'lumotlarni himoya qilish va shaxsiy hayot daxlsizligi nazariyasi ko'ra, raqamli dunyo shaxsiy ma'lumotlar va xabarlar yig'ish bilan bog'liq yangi xavf-xatarlarni keltirib chiqarmoqda. Raqamli texnologiyalar, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlar va onlayn xizmat ko'rsatuvchi platformalar shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish va ularni tahlil qilish imkonini beradi. Natijada, shaxsiy ma'lumotlar insonlar tomonidan noto'g'ri maqsadlarda ishlatilishiga, shaxsiy hayotga tajovuz qilish va maxfiylikka tahdid solishi mumkin. Garchi axborot olish erkinlik huquqiy mavjud bo'lsa-da, ushbu huquq boshqa shaxslarning huquqlarini buzmasligi lozim. Shuning uchun, ushbu masalalarni tartibga solishga qaratilgan bir qancha xalqaro hujjatlar qabul qilingan. **Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 12-moddasida** hech kim shaxsiy va oilaviy hayotiga o'z boshimchalik bilan aralashish, uy-joy daxlsizligi, uning yozishmalaridagi sirlarga yoki sha'ni qadr-qimmatiga o'zboshimchalik bilan tajovuz qilishi mumkin emasligi belgilangan. Shuningdek **Inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasining 10-moddasi** so'z erkinligi huquq bo'lishi bilan bir qatorda, o'zida majburiyatni ham vujudga keltirishi bu bilan shaxs so'z erkinligidan foydalanganda boshqalarning huquqlari va sha'ni, qadr-qimmatiga putur yetkazmaligi, shaxsiy ma'lumotlarni oshkor qilmasligi lozimligini bildiradi.

Jumladan, **Yahoo 2016-yilda** ikkita yirik ma'lumotlar buzilishini boshdan kechirganligini oshkor qildi. Ushbu holat 3 milliarddan ortiq foydalanuvchilar hisoblariga ta'sir ko'rsatgan. Buzilishlar 2013-yil va 2014-yillarda sodir bo'lgan. Xakerlar foydalanuvchilarning ism-familiyasi, electron pochta manzillari, telefon raqamlari, tug'ilgan sanalari va parollarni qo'lgan kiritishgan. Bu kabi



tahdidlarning ko'payishi natijasida, Yevropa Parlamenti va Konsuli tomonidan **2016-yil 27-aprelda** “**Umumiy ma'lumotlarni himoya qilish reglamenti**” to'g'risidagi xalqaro hujjat qabul qilindi. Ushbu Reglamentning asosiy maqsadi shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlanishi jarayonida jismoniy shaxslarning huquq vaerkinliklarini, ayniqsa, shaxsiy ma'lumotlar himoyasini ta'minlashdir. Shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlashda **Reglamentning 17-moddasining 1-qismi “d”** bandiga ko'ra, *“Ma'lumotlar subyekti tegishli nazoratchidan o'ziga tegishli shaxsiy ma'lumotlarning o'chirilishi ortiqcha kechiktirmasdan olish huquqiga ega va nazoratchi ana shu shaxsiy ma'lumotlar noqonuniy ishlov berilgan taqdirda o'chirishga majbur”* ekanligi belgilangan. Bu esa raqamli dunyoda insonning huquqlari ta'minlashda samarali mexanizm bo'lib xizmat qilmoqda.

Yana bir muammolardan biri bu Sun'iy Intellekt va intellektual mulk huquqining himoya qilinishi bilan bog'liqdir. *Intellektual mulk _ shaxsning o'zining ijodiy faoliyati tufayli tur xildagi badiiy, ilmiy va san'at asarlari yaratishga bo'lgan huquqi.* **“Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi” Xalqaro Paktning 15-moddasida** “o'zi muallif bo'lgan har qanday ilmiy, adabiy yoki badiiy mehnat bilan bog'liq holda yuzaga keluvchi moddiy va ma'naviy manfaatlar himoyasidan foydalanish huquqi” belgilangan. Bundan ko'rinadiki, faqat jismoniy shaxslargina ushbu huquqlarini amalga oshira olishi mumkindir. Unda AI yordamida yaratilgan asarlariga bo'lgan huquqi-chi, degan o'rinli savol yuzaga kelmoqda. Albatta, SI bilan ishimiz ancha-muncha osonlashdi. Endilikda, hatto taqdimot uchun soatlab vaqtimizni sarflashga hojat yo'q. Birgina, “Ushbu mavzuga oid 20 ta slayddan iborat taqdimot tayyorlab ber” deb yozishning o'zi kifoya bo'lib qolmoqda. Ma'lumki, Intellektual mulk huquqini himoya qilish bo'yicha **1971-yilda “Adabiy va badiiy asarlarni himoya qilish to'g'risida”gi Bern Konvensiyasi** qabul qilingan. Ushbu



konvensiyaning **6-moddasida** *“muallifning mulkiy huquqlaridan qat’i nazar va u hatto bu huquqlardan voz kechgan taqdirda ham muallif o’z muallifligining e’tirof etilishini talab qilishi hamda ushbu asarni sohtalashtirish, buzib ko’rsatish yoki boshqa o’zgartirishlarga qarshi chiqish, shuningdek, muallifning izzat-nafsi yoki obro’siga ziyon yetkaza oladigan harq qanday boshqa tajovuzlarga qarshilik ko’rsatish huquqiga ega bo’lishi”* belgilan o’tilgan bo’lsa-da, ushbu normaning amalda ishlamayotganligidan dalolat beruvchi holatlar uchramoqda. **2025-yilning 25-martida** Open AI GPT-4o modelini chiqardi va SI yaponiyaning mashhur animatsion studiyasi bo’lgan “Ghibli” ning tasvirlariga o’xshash tasvirlar yaratishi olish imkoniyati yuzaga keldi. Ushbu holat jamaotda juda tez ommalashib ketdi. Insonlar o’zlarining yoqtirgan animatsion multfilm qahromonlari tasvirida bo’lishlari hammani birdek zavqlantirgan bo’lsa-da, bir guruh odamlar ushbu ish umuman axloq-huquq normalariga to’g’ri kelmasiligi bva OpenAI kompaniyasidan ushbu modelni o’chirib tashlashni talab qilishmoqda. Biz uchun sevimli bo’lgan dunyoning asta-sekin raqamli texnologiya tomonidan egallanib olishi qanday achinarli. Eng qizig’i, bunga o’zimiz yo’l qo’yib bermoqdamiz. Bundan tashqari, Yevropa Ittifoqi tomonidan **2024-yilda qabul qilingan “Sun’iy intellekt to’g’risidagi Akt”ning** asosiy maqsadlaridan biri sifatida *“ litsenziyaga ega bo’lgan GPAI modeli provayderlari faqat mualliflik huquqiga rioya qilishlari”* keltirilgan. Lekin “Ghibli va AI” keysi yuzasidan nega haligacha ushbu hujatlardan kelib chiqib holda, hech qanday chora ko’rilmadi, degan savol tug’iladi. Sababi SI yaratgan tasvirlar Ghibli Studiyasi tomonidan chiqarilgan asarlarga faqat taqlid qilgan, ya’ni undan kerakli algoritmlarni olgan holda tasvirlar ishlab chiqqan. Shu sababli, hozirgi kunga qadar, ushbu versiya ishlashda davom etmoqda. Endilikda huqushunos olimlar va butun jamoat SIning huquq subyekti sifatida tan olish kerakmi yoki yo’qligi bo’yicha bahslashmoqdalar. Sabab SI tomonidan yaratilgan asarlarga



bo'lgan huquq Miyazakiga tegishli yoki ushbu tasvirni yaratishni SIDan so'ragan shaxsgami yoki SI gami? Albatta SI o'zi mustaqil ravishda san'at asarlari yaratmaydi. Bir tomondan SI ni huquq subyekti sifatida qabul qilinishi, mualliflik huquqlarini buzilishiga yo'q qo'yilmasligi mumkin deyilsa, ikkinchi tarafdin, asarlar faqat insonlar tomonidan yaratiladi, ushbu huquqni qandaydir sovuq mashinaga axloqan to'g'ri emas degan fikrga borilmoqda. Shu sababli ushbu masalani hali ham ochiqligicha qolmoqda, bu esa biz sevgan studiyaning huquq va manfaatlariga o'z tasirini ko'rsatmay qolmayapti.

“AI va Ghibli” keysi intellectual mulk huquqiga oid nizoni keltririb chiqarish bilan bir qatorda, insonlarda tasvirga bo'lgan huquqning ham buzilishiga olib kelishi mumkinligini ko'rsatdi. Har bir tasvirni yaratishda shaxs o'zi tasvirini joylaydi. Yuz tasvir esa shaxsni aniqlash imkonin beradigan biometric ma'lumoyt hisoblanadi. Shu bilan birga u inson hayotining bir qismi sifatida e'tirof etiladi va undan ruxsatsiz foydalanish inson huquqlari buzilishi deb baholanadi. “Umumiy ma'lumotlarni himoya qilish reglamenti”da biometrik ma'lumotlar deb, bu jismoniy shaxsni aniqlash yoki tasdiqlash imkoni beruvchi, u haqidagi fizik, fiziologik yoki xulq-atvoriy xususiyatlarga oid maxsus texnik ishlov bverish natijasida olingan shaxsiy ma'lumotlar bo'lib, bular jumlasiga uz tasviri va barmoq izlari kirishi belgilangan. “Sun'iy Intellekt to'g'risidagi Akt”da internetdagi yoki kameralardagi yuz tasvir ma'lumotlari maqsadsiz yig'ish yoki shu ma'lumotlarni aniqlash bo'yicha ma'lumotlar toplash taqiqlangan. SIga yuklangan tasvirlar, afsuski, o'chib ketmaydi. Balki yig'ish bilan shaxslarning biomterik ma'lumotlari yig'ish holatlari sodir bo'lish xavfini oshiradi. Shuning uchun SIDan ushbu dasturni olib tashlagan ma'qul.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, raqamli dunyoda inson huquqlarini amalga oshirish bir qancha osonlashdi. Ushbu qulayliklar insonlarning hayot tarzini ham



yengillashtirishga muvaffaq bo'ldi. Lekin bu muammolar yo'q degani emas. Insonning eng muhim huquqi bo'lish shaxsiy hayot daxlsizligi hali ham juda katta xavf ostida qolmoqda. Birgina tugma orqali insonga tegishli bo'lgan shaxsiy ma'lumotlar boshqa bir insonning foydasiga ishlashi, yoki aybsiz aybdor bo'lib qolishi hech gap emas. Shu sababli shaxslardan kibermakonda ehtiyot bo'lish talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" _ 12-19-moddasi, <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>
2. "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi Xalqaro Paktning 19-moddasi,- <https://lex.uz/docs/-2640479>
3. "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi" Xalqaro Paktning -13-15-moddasi,- <https://lex.uz/docs/-2686000>
4. "Ta'lim uchun ulanish to'g'risidagi" qayta tuzilgan Global deklaratsiya
5. "Raqamli sog'liqni salash bo'yicha global strategiya 2020-2025 nomli xalqaro hujjat
6. Inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasi _ 10-moddasi,- https://www.echr.coe.int/documents/d/echr/convention_eng
7. "Adabiy va badiiy asarlarni himoya qilish to'g'risida"gi Bern Konvensiyasi _ 12-moddasi, _ <https://lex.uz/docs/1310607>
8. "Sun'iy intellekt to'g'risidagi Akt"ning
9. -A BRIEF HISTORY OF HUMAN RIGHTS-, <https://www.humanrights.com/what-are-human-rights/brief-history/the-united-nations.html>



**10. The world's first general purpose computer turns 75,-
<https://penntoday.upenn.edu/news/worlds-first-general-purpose-computer-turns-75>,**

**11. *Openness policy of New Uzbekistan is changing significantly,-
<https://uzbekistan.org/openness-policy-of-new-uzbekistan-is-changing-significantly/3321/>***

**12. _ Bridging the digital divide and ensuring online protection, _ UNESCO, _ 2
February 2023. <https://www.unesco.org/en/right-education/digitalization>**

**13. Lessons Learned from High-Profile GDPR Data Breach Cases,-
<https://www.gdpr-advisor.com/lessons-learned-from-high-profile-gdpr-data-breach-cases/>?**